

BOLALAR NUTQIDA NUQSONLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNING TASNIFLANISHI.

*Andijon davlat pedagogika instituti maktabgacha
ta'lim fakulteti maxsus logopediya yo'nalishi talabasi
Mamarasulova Sojidaxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, nutqiy rivojlanishning buzilishlari va ularning tasniflanishi, mustaqil nutqni rivojlantirish usullarini rivojlantirish, bolalarda nuqsonlarni bartaraf etishda inovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kamchiliklar, dislaliya, alaliya, duduqlanish.

Homiladorlik davridan onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan turli xil nutq kamchiliklarini oldini olishga yordam beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar esa o'zgalar nutqini tushunishdagi qiyinchilik ularni atrofdagilar bilan muloqotda bo'lish o'z tengdoshlariga qo'shilib ketishni qiyinlashtiradi.

Bolaning nutqi asosan kattalar nutqi asosida rivojlanib, shakllanib boradi. Bolada nutqning ravon shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, nutq muxiti va ta'lim tarbiyaga bog'liq bo'ladigan jarayonlardan biri hisoblanadi. Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, bunda bosh miya faoliyati asosiy ro'l o'ynaydi. Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan va yuqori darajadagi aloqa vositasidir. Nutq orqali kishilar o'zaro fikr almashadi va o'zaro muloqot qilishadi. Shu sababli ham nutq inson hayotida muhim ahamiyatga egadir. Bunday kamchiliklarning inson hayotida uchrashi esa, odamlarda hayotiy qiziqishlarini so'nishigacha olib kelmoqda. Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Shu bilan birga bu harakatlarni maxsus ixtiyoriy kuch ishlatmasdan ro'yobga chiqarish mumkin bo'lgan avtomatik bo'lishi darkor.

Nutqiy nuqson deganda, ma'lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlari hamda ularning bog'lanish harakteri majmui tushuniladi. Nutqiy nuqson buzilishida birlamchi, yetakchi buzilishi va ikkilamchi nuqsonlar ajratib ko'rsatiladi. Bu buzilishlar asosan bir-birlari bilan sabab oqibat munosabatida bo'ladi. Nutqiy nuqsonlarning turlicha tuzilishi birlamchi va ikkilamchi alomatlarning alohida bog'lanishlarda va o'z aksini topadi va biror maqsadga qaratilga logopedik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Bugungi kunda nutqiy kamchiliklar kuzatilgan bolalar soni ortib bormoqda. Bunga sabab bolalarning internet tarmoqlariga yani telefonga bog'lanib qolishi asos bo'lib kelmoqda. Shu sababliy bolalarda nutqiy kamchiliklarning bir qancha ko'rinishlari

kuzatilmoxqada.

Nutqiy buzilishlarning kelib chiqishida maxsus sharoitlar katta ro'l o'ynaydi, ya'ni nutq kamchiliklarining kelib chiqishiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillar. Masalan, psixik travma ta'siri ostida bolada duduqlanish sodir bo'ladi va u tashqi sabab sifatida ko'rildi. Quyidagilar esa duduqlanishning kelib chiqishi uchun qulay sharoit bo'lib xizmat qiladi: bolaning somatik zaifligi, nerv-psixik qo'zg'aluvchanlikning oshganligi, markaziy nerv sistemasining erta organik jarohatlanishi va boshqalar.

Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoillariga ta'rif bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri R.YE. Levina hisoblanadi. Bundan oldin ham ko'pchilik olimlar nutq buzilishlari, ularning kelib chiqish sabalarini bartaraf etishda o'z fikr mulohazalarini bildirganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq kamchiliklarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarning katta ta'siri bo'lib, A.Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'igan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi, atamalrn tartibga keltirdi.

Nutqning normal shakllanishi uchun miya yarimsharlarining ma'lum bir yetuklikka erishishi, artikulyar apparatning shakllanishi va eshitishning saqlanib qolishi kerak.

Nutq buzilishi bo'lgan bolalar - bu normal eshitishi buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og'ish bo'lgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma xil bo'lib ular talaffuzning buzilishi, lug'atning kambag'alliligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo'lishi mumkin.

"Nutq nuqsonlarning og'ir darajasida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o'qitish mumkin emas, shuning uchun og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalar uchun maxsus bog'chalar va mакtablar mavjud. Bunday kasallikklardan aziyat chekadigan bolalarda lug'at zahirasi kam, ba'zilari esa umuman gapirmaydi. Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyasiga olib keladi: ular tengdoshlari bilan o'yinlarda, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatidan to'liq yoki qisman mahrum bo'ladi". [2,45].

Nutqning uyg'unligini shakllantirish, so'zlarni mazmunli va mantiqiy tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish mакtabgacha yoshdagi bolaning nutq tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Shuning uchun to'g'ri nutqning shakllantirishning yangi maxsus uslubiy usullari va tamoyillarini izlash muhimdir.

Barcha o'qituvchilar, shu jumladan, logopedlarning o'z kasbiy faoliyatiga inovatsion xarakter berish istagi ta'limning shaxsga yo'naltirilgan pedagogika pozitsiyasiga o'tishi bilan bog'liq [3,7]. Logopedlar korreksiya va pedagogik ishdagi yangiliklardan foydalangan holda, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda ularning individual qobiliyatlarini, jumladan til qobiliyatini rivojlantirishga intilishadi, dasturiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroklari

tekshirib olinadi, shu asosida tashxis qo'yiladi. Nutq nuqsonlarining bir qancha turlari bo'lib, ularda asosiyulari: dislaliya, dizartriya, alaliya, rinolaliyadir.

1. Nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik bu-dislaliyadir. Dislaliya grekcha so'zdan olingan bo'lib :dis-buzilish, laliya-nutq degan ma'nolarini anglatadi. Bu kasallik yengil formadagi nutq buzilishi hisoblanib, o'z vaqtida tashxislash va davolash orqali oldini olish mumkin.

2. Dizartriya -bu artikulyatson apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni hisoblanadi va juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi.

3. Alaliya -bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq nuqsonlaridan biridir. Alaliya nutqning 3ta komponenti shakllanmasligi asosida paydo bo'ladi.

4. Rinolaliya -bu artikulyatsion apparat a'zolarida tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarning bo'lishi yoki artikulyatsion apparat a'zolarida burun, burun-halqum sohasida falajlarning kuzatilishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni hisoblanadi.

Bugungi kunda mana shunday nuqsonlarni bartaraf etishda bir qancha yo'llar o'ylab topilmoqda ana shulardan biri:

1. Artikulyatsiya, nafas, mayda qo'l muskullarini rivijlantiruvchi mashqlar;
2. Logomassaj
3. Muammoli tovushni nutqqa qo'yish (taqlid va mexanik usulida)
4. Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar.

Xulosa qilib aytganda, nutq nuqsonlari qo'zg'alish va tormizlanish jarayonlarining muvozanati buzulishlaridan kelib chiqadi. Ota-onalar farzandi bilan bo'lgan muloqot jarayonida bolada biron bir nutqiy kamchilikni sezishi bilan logoped tekshiruviga olib borishi zarur. Nutq nuqsonlarining erta aniqlanishi ushbu nuqsonlarni erta bartarav etishga olib kelishi mumkin. Nutqiy kamchilikka ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o'z xulq-atvorini va o'zining mavqeyini anglashi lozim. O'zaro tushunish rag'batlantirish, tartibni saqlash, oila a'zolari o'rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir nutq kamchiliga ega bolalardagi pisixogen reaktiv holatlar profilajtikasida jiddiy rol o'ynaydi. Xususan ushbu holat duduqlanuvchi o'quvchilar uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti ", 2007.
2. Ayupova M.Yu-Korreksion ishlari metodikasi . Ma'ruza matni. T-2001.
3. Ya. Mo'minova, M.Qahramonova. Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1988